

**O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT SAMARADORLIGINI
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

Mamatova Guzal Davlatovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti v.b. dotsenti

Sunatov Jo'rabek Turg'unbek o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri va samaradorligini baholashda ekonometrik modellashtirishning roli tahlil qilinadi. Ekonometrik modellar asosida internetdan foydalanish darajasi, elektron xizmatlar ulushi va AKT investitsiyalarining YaIM o'sishiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari taklif qilinadi.

Kalit so'zlar. raqamli iqtisodiyot, samaradorlik, ekonometrik model, AKT, O'zbekiston, internet, investitsiya.

Аннотация. В статье анализируется состояние развития цифровой экономики в Узбекистане, ее влияние на макроэкономические показатели, а также роль эконометрического моделирования в оценке ее эффективности. На основе эконометрических моделей изучаются уровень использования Интернета, доля электронных услуг и влияние инвестиций в ИКТ на рост ВВП. На основе результатов исследования предложены стратегии развития цифровой экономики.

Ключевые слова. цифровая экономика, эффективность, эконометрическая модель, ИКТ, Узбекистан, интернет, инвестиции.

Annotation. This article analyzes the state of development of the digital economy in Uzbekistan, its impact on macroeconomic indicators and the role of econometric modeling in assessing its effectiveness. Based on econometric models, the level of Internet use, the share of electronic services, and the impact of ICT investments on GDP growth are studied. Based on the research results, strategies for developing

the digital economy are proposed.

Keywords. *digital economy, efficiency, econometric model, ICT, Uzbekistan, internet, investment.*

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekiston raqamli transformatsiyaga katta e'tibor qaratmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida davlat xizmatlarini raqamlashtirish, AKT infratuzilmasini rivojlantirish, elektron tijoratni kengaytirish choralari ko'rilmoqda. Bu jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini baholash esa ilmiy yondashuvni, xususan, ekonometrik modellashtirish vositalarini qo'llashni talab etadi[4].

Metodlar.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1990-yillarda Yaponiya inqirozi davrida yapon professori tomonidan qo'llanilgan. 1995-yil Yevropada Don Tapskotning "Цифровая экономика: обещание и опасность в эпоху сетевой разведки" asari va 1995-yil Nikolas Negroponte (Masachusetts, AQSh) ning tadqiqot ishida qo'llanilgan[1].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi[3]:

1) Deskriptiv tahlil – O'zbekistondagi raqamli iqtisodiyot rivojiga oid asosiy statistik ko'rsatkichlar o'rganildi.

2) Regressiya modellari – AKT investitsiyalari, internetdan foydalanuvchilar soni, elektron xizmatlar sonining YaIMga ta'siri aniqlash uchun.

3) Panel ma'lumotlar tahlili – viloyatlar kesimida raqamli xizmatlar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik tahlili.


4) ARIMA modeli – AKT rivojining iqtisodiy o'sishga uzoq muddatli ta'siri prognoz qilindi.

Natijalar.

Tadqiqotga asosan quyidagi natijalarga ega bo'lishimiz mumkin[2]:

1. Regressiya natijalari.


AKT investitsiyalari 1% ga oshganda YaIM 0.42% ga o'sgani kuzatildi[5].



1-rasm. Regressiya natijalari: AKT investitsiyasi va YaIM

2. Internetdan foydalanish va iqtisodiy o'sish


2017–2023 yillar davomida internet foydalanuvchilari soni 41% ga oshgan, bu esa xizmatlar sohasi ulushining 3.7% ga kengayishiga olib kelgan[6].



2-rasm. Internetdan foydalanish va xizmatlar sektori o'sishi.

3. Elektron xizmatlar samaradorligi


Elektron davlat xizmatlarining ko'payishi fuqarolarning rasmiy sektor bilan aloqasini oshirdi. Panel tahlilga ko'ra, elektron xizmatlarning 1% oshishi iqtisodiy faollikni 0.27% ga rag'batlantirgan[7].



3-rasm. Elektron xizmatlar va iqtisodiy faollik

4. ARIMA prognozi

AKT rivojlanishining 2025–2028 yillarda YaIMga qo'shadigan hisssasi taxminan 2.3% ni tashkil etishi prognoz qilindi[8].



4-rasm. ARIMA prognozi: AKTning YaIMga hisssasi.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyot nafaqat axborot texnologiyalarining rivoji, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi strategik vosita sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston sharoitida eng muhim muammo — AKTga oid kadrlar tanqisligi, infratuzilmaning ayrim hududlarda sustligi va investitsion oqimlarning notekis taqsimlanishidir. Shu bois, barqaror o'sish uchun hududiy differensial yondashuv, raqamli savodxonlikni oshirish, va xususiy sektorni jalb etish zarur.

Xulosa

Tadqiqotlar asosida raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'siri isbotlandi. Ekonometrik modellar orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

- 1) AKT investitsiyalari YaIM o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.
- 2) Internet va raqamli xizmatlar iqtisodiy faollikni oshirmoqda.
- 3) Uzoq muddatli prognozlar raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish zaruratini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kurpayanidi Konstantin Ivanovich, Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li. Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va yechimlar.

2. Abduvaliyev, A. A., & Sunatov, J. T. (2024). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA TREND MEZONIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. Экономика и социум, (2 (117)-1), 69-73.
3. Кучкаров, Т., & Маматова, Г. (2024). ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ОБЩЕСТВЕ. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(4), 127-136.
4. Маматова, Г. Д. (2021). К вопросу о роли цифровых технологий в совершенствовании высшего образования Республики Узбекистан. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 239-243).
5. Маматова, Г. Д. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ. ББК 65.0501 А 43, 71.
6. Mamatova, G. (2023). OLIY TA'LIM MUASSALARINING RAQAMLI FAOLIYATI hamda KELAJAK KADRLARINI TAYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR va SUN'IY INTELEKTNI QO 'LLASH JARAYONLARI. KELAJAK KASBLARI. Interpretation and researches, 1(7).
7. Mamatova, G. (2023). Цифровой университет: стратегия создания умной инфраструктуры в высших учебных заведениях Узбекистана. Economics and Innovative Technologies, 11(4), 296-312.
8. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).